

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGANOVA RUXSORA TADJIBAYEVNA**

**QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI SANOATINING  
RIVOJLANISHI VA HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

**11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Xudayberganova Ruxsora Tadjibayevna**

Quyí Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibini  
takomillashtirish ..... 3

**Худайбергано́ва Рухсо́ра Таджибаевна**

Развитие и совершенствование территориальной структуры промышленности  
Нижеамударьинского экономического района ..... 21

**Xudayberganova Ruxsora Tadjibayevna**

Development and improvement of the territorial structure of industry of the Lower  
Amudarya economic region ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGANOVA RUXSORA TADJIBAYEVNA**

**QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI SANOATINING  
RIVOJLANISHI VA HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

**11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.4.PHD/Gr289 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Komilova Nilufar Karshiboyevna**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Nasimov Dilmurod Abdullayevich**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Xo'jayeva Gulya Ashirbayevna**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" iyun soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-16-36), faks: (+99866) 239-11-40; E-mail: ik-geografiya2018@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№34 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "30" may kuni tarqatildi.  
(2024-yil "22" maydagi 11-raqamli reestr bayonnomasi).



**S.B.Abbasov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, g.f.f.d. PhD.

**Q.S.Yarashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d.  
(DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonining jadal rivojlanishi o‘z ijobiy jihatlari bilan bir qatorda hududlarda o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish dasturi”ning 12-maqсадida “Barqaror iste‘mol va ishlab chiqarish shakllariga o‘tishni ta‘minlash”<sup>1</sup> vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifalar echimida, ayniqsa, mintaqalarda sanoat tarmoqlari va uning hududiy tarkibini takomillashtirish, sanoat tarmoqlari imkoniyatidan samarali foydalanishni ta‘minlovchi ixtisoslashuvga erishish, prognoz qilish va mavjud muammolarni manzilli hal etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Jahonda sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish va uni hududiy tashkil etishga ta‘sir ko‘rsatuvchi mahalliy xom ashyo va ekologik omillar asosida sanoat korxonalarini joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish bilan bog‘liq tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada yuqori texnologiyalar asosida ekologik toza mahsulotlar yaratish, mahsulot hajmini matematik modellashtirish, prognozlash va shu asosda sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda sanoat sohasini jadal rivojlantirishda hududlarning tabiiy-resurs salohiyati va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda korxonalarini joylashtirish va uning hududiy tarkibini takomillashtirishga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash” ustuvor yo‘nalishining 22-maqсадida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash masalalari belgilab berilgan<sup>2</sup>. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash” ustuvor maqsadlaridan birida sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish belgilangan<sup>3</sup>. Bu borada, Quyi Amudaryo mintaqasi sanoat korxonalarini joylashtirishning innovatsion taraqqiyot sharoitiga

---

<sup>1</sup>Goal 12. Ensure sustainable consumption and production patterns. Department of Economic and Social Affairs Sustainable Development. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/sustainable-consumption-production/>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

<sup>3</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil, 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

mos keladigan ilmiy asoslarini ishlab chiqish, sanoat ishlab chiqarishni hududiy tashkil etilishini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-noyabrdagi PQ-856-son “2013-2015-yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son “2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 154-son “2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 4-apreldagi 155-son “2022-2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”, V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” va VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish masalalari bo‘yicha xorijiy olimlardan V.Launxardt, A.Veber, A.Lyosh, F.Perru, V.Kristaller, M.Porter, shuningdek, MDH davlatlaridan P.N.Stepanov, A.D.Breyterman, N.V.Alisov, N.N.Kolosovskiy, A.Y.Probst, Y.G.Feygin, N.N.Nekrasov, A.T.Xrushev kabi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari bilan Z.M.Akramov, S.K.Ziyodullayev, K.N.Bedrintsyev, Sh.N.Zokirov, M.A.Abdusalomov, I.I.Iskanderov, T.M.Ahmedov, E.A.Ahmedov, R.Y.Dosumov, Sh.B.Imomov, A.N.Ro‘ziyev, N.T.To‘xliyev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, N.S.Sultonov, E.Q.Umarov, A.M.Sodiqov va boshqa olimlar shug‘ullanishgan. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tishi sharoitida sanoat korxonalarining rivojlanish va hududiy tashkil etilishi muammolari bo‘yicha qator ishlar qilingan. Jumladan, S.Xaydarov, L.N.Erdanov, L.K.Qarshiboyeva, H.S.Mirzaaxmedov, H.M.Abdunazarov, D.R.Ro‘zmetov, A.G.Abdullayev, Sh.S.Jo‘rayev, X.O.Abdinazarova, E.O.Uralov va boshqalar ilmiy ishlanishlar olib borganlar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ushbu dissertatsiya tadqiqot mavzusiga yaqin ishlar asosan sobiq Ittifoq davrida bajarilgan yoki alohida sanoat tarmoqlariga bag‘ishlangan. Ammo, innovatsion taraqqiyot sharoitida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoati rivojlanishining imkoniyatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim**

**muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining F-1-42 raqamli “Iqtisodiyotni chuqur liberallashtirilishi sharoitida mintaqani 2016-2021-yillarda kompleks rivojlantirishning samarali dasturlarini ishlab chiqish” (2012-2016-yy.) mavzusidagi fundamental tadqiqotlar davlat loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatini rivojlantirish va hududiy tarkibini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va joylanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatining shakllanish xususiyatlarini aniqlash va sanoatning tarmoqlar tarkibini tahlil qilish;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatining mujassamlashuviga xos hududiy xususiyatlarini aniqlash;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatining samarali rivojlanishini ta’minlash maqsadida yangi izlab topilgan, foydalanishga jalb etilmagan konlarini ishga tushirish orqali sanoat korxonalarini tashkil etishga doir takliflar ishlab chiqish;

Matematik modellashtirish orqali Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** iqtisodiy rayon sanoatining rivojlanishi va joylanishiga ta’sir etuvchi omillari va ko‘rsatkichlari, hududiy tarkibi, muammo va istiqbollari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot ishini bajarishda geografik taqqoslash, statistik, kartografik, tarixiy, SWOT – tahlil, tizim-tarkib, matematik modellashtirish va boshqa metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur hudud sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga ta’sir etuvchi (xom ashyo, suv, yoqilg‘i-energetika, transport, mehnat resurslari, iste’mol, texnologik, ekologik) omillarning ta’siri aniqlangan;

iqtisodiy rayon sanoatining yanada samarali rivojlanishini ta’minlash maqsadida foydalanishga jalb etilmagan Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qizketgan, Jamansoy, Darbozatov, Qaxralisoy, Ko‘lli, Janubiy-3 va Xorazm viloyatidagi Qoraqum, Bazirgon konlarini ishga tushirish orqali qurilish materiallari va kimyo sanoatiga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini tashkil etish asoslangan;

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini matematik modellashtirish orqali Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida 2030-yilgacha mo‘ljallangan prognozi ishlab chiqilgan;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ajratilgan sanoat rayonlari kesimida, ishchi kuchi va mineral xom ashyoga boy bo'lgan tumanlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ArcGIS dasturida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va tarmoqlar tarkibini aks ettiruvchi (1:3 000 000 masshtabli) sanoat kartasi ishlab chiqilgan;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklarda xomashyo va qazilma boyliklarning mavjudligi, aholi va mehnat resurslari, ma'muriy-hududiy birliklarning yaxlitligi, sanoat tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuviga asoslangan (1:3 000 000 masshtabli) sanoat rayonlari kartasi yaratilgan;

yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlar asosida iqtisodiy rayon sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'liq dolzarb muammolar tahlil qilingan va ularning yechimi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanganligi va bevosita muallifning kuzatuv ishlari natijalari asosida yaratilgan kartalar, xulosa, taklif va tavsiyalari amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik omillarini tahlil qilish orqali ilgari surilgan nazariy-uslubiy yondashuvlardan sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etishga oid ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan mintaqa sanoatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta'lim tizimining tegishli yo'nalishlarida "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya", "Sanoat geografiyasi" singari fanlarning o'quv materiallarini takomillashtirish va o'quv jarayonida foydalanishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatini rivojlantirish va hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur hudud sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga ta'sir etuvchi (xom ashyo, suv, yoqilg'i - energetika, transport, mehnat resurslari, iste'mol, texnologik, ekologik) omillarning ta'sirini aniqlashtirishga doir ma'lumotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi 2023-yil 22-dekabrda Ux-22/04-2424-son ma'lumotnomasi). Natijada, iqtisodiy rayonda tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik, transport infratuzilmasi va mavjud mehnat resurslari imkoniyatlari hamda ekologik

toza yuqori texnologiyalar kabi omillarning sanoatni hududiy tashkil etishga ta'sirini aniqlash imkonini bergan;

iqtisodiy rayon sanoatining yanada samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida foydalanishga jalb etilmagan Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qizketgan, Jamansoy, Darbozatov, Qaxralisoy, Ko'lli, Janubiy-3 va Xorazm viloyatidagi Qoraqum, Bazirgon konlarini ishga tushirish orqali qurilish materiallari va kimyo sanoatiga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini tashkil etish taklifidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi 2023-yil 22-dekabrda UX-22/04-2424-son ma'lumotnomasi). Natijada, iqtisodiy rayondagi ishlab chiqarishga jalb etilmagan foydali qazilma konlarining imkoniyatlaridan foydalanish asosida qurilish materiallari va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish salmog'ini oshirishga erishilgan;

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini matematik modellashtirish orqali Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi 2023-yil 22-dekabrda UX-22/04-2424-son ma'lumotnomasi). Natijada, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati sanoatining istiqbol yo'nalishlarini belgilash va ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini bergan;

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ajratilgan sanoat rayonlari kesimida, ishchi kuchi va mineral xom ashyoga boy bo'lgan tumanlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi 2023-yil 22-dekabrda UX-22/04-2424-son ma'lumotnomasi). Natijada, iqtisodiy rayonda sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiyalash bilan ishlab chiqarish samaradorligini yanada yuksaltirish orqali aholi bandligini ta'minlash choralari ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Scopus ma'lumotlar bazasida mavjud ilmiy jurnalda 1 ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston sanoati rivojlanishi va joylanishining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga oid g‘oya va ishlanmalar, alohida tarmoqlarni joylashtirish (V.Launxardt, A.Veber), o‘shish qutblari va hududiy ishlab chiqarish majmualari (F.Perru, N.N.Kolosovskiy), zamonaviy hududiy klasterlar (M.Porter), hamda sanoat tarmoqlarini joylashtirishning ilmiy - nazariy asoslari o‘rganilgan (1-rasmga qarang).

Sanoatni joylashtirishga oid ilk nazariy qarashlar XIX asr 80-yillarida nemis olimlari V.Launxardt, to‘ldirilgan holda XX asr boshida, A.Veber tomonidan ilgari surilgan. V.Launxardt joylashtirish omilini teng sharoitlarda baholash, A.Veber omillar-shtandortlar (ishchi kuchi, transport, xom ashyo) ta‘sirchanligini masofaviy o‘zgarishiga tayanish asosida, sanoat korxonasini joylashtirishning matematik modellarini ilgari surishgan.


Sanoatni joylashtirishga oid dastlabki nazariyalar bozor munosabatlari davrida yaratilgan bo‘lsa-da bunda joylashtirish omillari (shtandortlari) shartli ko‘rilgani bois ular jahonning ayrim mamlakatlarida, masalan sobiq Ittifoq olimlari tomonidan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosi sifatida rivojlantirilgan.

Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishi barobarida, qishloq xo‘jaligi, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarining shakllanishi, hududiy tashkil etilishi hamda ularni makon va zamonda tizimli, kompleks rivojlanishini mintaqaviy jihatlarining tadqiqiga asoslangan nazariy qarashlar vujudga keldi. Ularga A.Smit va D.Rikardoning “mutloq va nisbiy afzalliklar” I.Tyunenning “izolyatsiyalangan mamlakat”, A.Lyoshning “iqtisodiy landshaftlar”, F.Perruning “o‘shish qutblari”, V.Kristallerning “markaziy o‘rinlar”, N.Kondratevning “uzun to‘lqinlar”, T.Xagerstrandning “yangiliklar diffuziyasi” kabi nazariya va ishlanmalari iqtisodiy fanlar qatori iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot fanlari rivojlanishiga olib kelgan.

Jahonning ilg‘or davlatlari va mintaqalarida sanoat – iqtisodiyotning yetakchi ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida jamiyatning moddiy asosi, shuningdek, barcha jabhalarni texnika va texnologiyalar bilan qurollantiruvchi muhim sohasi hisoblanadi. Sanoatni rivojlantirishda fan-texnika taraqqiyotidan samarali foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, aholining ijtimoiy iste‘molini o‘rganish orqali ishlab chiqarishni tashkil etish hamda tarmoqlarda xom ashyo va resurslardan samarali foydalanish masalalariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Mazkur bobda O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibi, sanoatni mahalliyashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashning iqtisodiy - geografik jihatlari, iqtisodiy rayonlarda qayta ishlashning rivojlanishi, sanoat

majmualari, klasterlar shakllanishi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda hududlarda mavjud resurslarni ishga solinmaganligi, sanoatning hududlar iqtisodiyotidagi oʻrning pastligi, tarmoq tarkibi turlanmaganligi, tor ixtisoslashuvi, yuqori hududiy va urbanistik mujassamlashuv kabi muammolar yoritilgan.



**1-rasm. Sanoatni rivojlantirish va joylashtirishga oid nazariyalar.  
Rasm ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.**

Dissertatsiyaning “**Quyil Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoati rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining asosiy omillari**” deb nomlangan ikkinchi bobida Quyil Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga taʼsir etuvchi omillar, jumladan, iqtisodiy rayonda suv resurslarining taqchilligi, Qoraqalpogʻiston Respublikasida qazilma resurslarning mavjudligi, Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik tanglik, demografik holati, xususan Qoraqalpogʻistonda aholi tarqoq joylashuvi, Xorazm viloyatida aholi joylashuvida hududiy mujassamlashuvning yuqori ekanligi va mehnat resurslari omillarning taʼsiri tahlil qilingan (1-jadvalga qarang).

Iqtisodiy rayon turli xil qazilma boyliklarga ega, lekin mintaqaning ichki qismlarida mineral xom ashyo resurslari bir xil taqsimlanmagan. Bu jihatdan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xorazm viloyatidan qazilma boyliklari: kimyo xom ashyosi hamda gaz va gaz-kondensat konlariga boyligi bilan ajralib turadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududida Shoxpaxta, Quvonish, Shimoliy Orol, Surgil, Berdax, Uchsoy, Urga, Shimoliy Jiltirbas, Shege, Gʻarbiy Borsakelmas, Qorachaloq, Koʻkchaloq, Oqchaloq kabi tabiiy gaz konlari ochilgan. Mustaqillik yillarida mintaqada keng miqyosli geologik – tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy rayonda yoqilgʻi – energetika resurslari bilan bir qatorda

metallurgiya, qurilish xomashyo resurslari ham mavjud. Qoraqalpog‘istonning Sultonuvays tizmasida temir rudasi, mis, oltin, sement xomashyosi, marmar, granit, gips, qurilish materiallari, tosh, talk, vismut va niobiy kabi kamyob metallar va boshqa xomashyolar bor.

1-jadval

Sanoat tarmoqlari joylashuviga ta’sir etuvchi omillar

Sanoat tarmoqlari	Xomashyo	Suv	Yoqilg‘i energetika	Transport	Mehnat resurslari	Iste’mol	Texnologik	Ekologik
Elektr energetika	-	++	++	+	+	++	++	++
Yoqilg‘i sanoati	+++	+	+	++	-	++	+	++
Qora metallurgiya	++	-	++	+	-	+	++	++
Rangli metallurgiya	+++	+	+	+	-	+	++	++
Kimyo va neft kimyosi	++	-	++	+	++	++	++	+++
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	++	-	+	-	++	++	+++	+
Qurilish materiallari sanoati	++	+	++	+	-	++	+	+
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash, selluloza-qog‘oz	+++	++	+	-	-	++	+	+
Yengil sanoat	+	++	+	-	++	+++	++	+
Oziq-ovqat sanoati	++	+	+	+	+	+++	++	+

Izoh. Shartli belgilar: ta’sir etish darajasiga ko‘ra, a) +++ “hal qiluvchi ta’sirga ega”; b) ++ kuchli ta’sirga ega; v) + “ta’sir ko‘rsatadi”, g) – ta’siri yo‘q.

Xorazm viloyatida shag‘al, qurilish qumi sanoat usulida ishlatilmoqda, Tuproqqal’a massivida gaz konlarini qidirish va ishga tushurish ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotda iqtisodiy rayon sanoatining yanada samarali rivojlanishini ta’minlash maqsadida foydalanishga jalb etilmagan Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qizketgan, Jamansoy, Darbozatov, Qaxralisoy, Ko‘lli, Janubiy-3 va Xorazm viloyatidagi Qoraqum, Bazirgon konlarini ishga tushirish orqali qurilish materiallari va kimyo sanoatiga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini tashkil etish taklifi asoslangan. Bunda iqtisodiy rayondagi ishlab chiqarishga jalb etilmagan foydali qazilma konlarining imkoniyatlaridan foydalanish asosida qurilish materiallari va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish salmog‘ini oshirishga erishish mumkin (2-jadvalga qarang).

Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy sharoiti sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulayliklarga ega. Ammo, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Quyi Amudaryo mintaqasida respublika sanoat mahsulotlarining atigi 6,7 foizi ishlab chiqariladi, xolos. Vaholanki, mintaqada mamlakat aholisining 10,9 foizi istiqomat qiladi. Bu esa hududning resurslaridan to‘laroq foydalanish, sohaga chet el investitsiyalarini jalb etish orqali aholi bandligini oshirishni talab

etadi. O‘z navbatida mintaqa sanoati ixtisoslashuvi, hududiy mujassamlashuvi, mavjud resurslardan foydalanish darajasini tahlil etish va istiqbolda rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashni talab etadi. Shuningdek, tadqiqotda mintaqa sanoatining tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvi, sanoat tarmoqlarining hududiy tashkil etilish xususiyatlari o‘rganilgan.

## 2-jadval

### Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatini rivojlantirish uchun mineral xomashyo zaxiralari (01.08.2023 y.)


Kon nomi va uning joylashgan hududi	Qazilma turi	Balans zaxira	Tuman	Mineral xom ashyodan foydalanish sohalari
Ko‘lli - Mo‘ynoq shahridan 30 km. sh.g‘.	Kvarts qumi	1792,5 ming t.	Mo‘ynoq	Sement, shisha, keramika, kimyo sanoati xom ashyosi
Janubiy-3 - Qo‘ng‘irot shahridan 85 km.	Mineral tuzlar	2978,0 ming t.	Qo‘ng‘irot	Natriyli xlor, kimyo sanoati xom ashyosi
Kaspiy-5 - Qo‘ng‘irot shahridan 90 km. sh.g‘.	Mineral tuzlar	2268,0 ming t.	Qo‘ng‘irot	Natriyli xlor, kimyo sanoati xom ashyosi
Qizketken - Nukus shahridan 7,5 km. j.sh.	G‘isht - cherepitsa	328,8 ming m <sup>3</sup>	Nukus	G‘isht ishlab chiqarishda
Elit tosh - Qoratorv shaharchasidan 7 km. sh.sh.	Qurilish toshi	1599,6 ming m <sup>3</sup>	Qorao‘zak	Qurilish sanoati xom ashyosi
Qorao‘zak-1 - Nukus shahridan 7 km. j. sh.	Qurilish toshi	2230,7 ming m <sup>3</sup>	Qorao‘zak	Qurilish sanoati xom ashyosi
Kekliktov-IX - Qoratorv shaharchasidan 6,5 km. sh. sh.	Qurilish toshi	1387,4 ming m <sup>3</sup>	Qorao‘zak	Qurilish sanoati xom ashyosi
Qaxralisoy - Beruniy shahridan 36 km. sh. g‘.	Ohaktosh	1937,8 ming m <sup>3</sup>	Beruniy	Qurilish sanoati xom ashyosi
Saksonbir-1 - Qoratorv shaharchasidan 10 km.sh. sh.	Qurilish toshi	4724,8 ming m <sup>3</sup>	Beruniy	Qurilish sanoati xom ashyosi
Qazg‘ansoy - Qoratorv shaharchasidan 41 km. sh.g‘.	Qurilish toshi	1853,2 ming m <sup>3</sup>	Beruniy	Qurilish sanoati xom ashyosi
Fianit - Qoratorv shaharchasidan 105 km. j.sh.	Qurilish toshi	1357 ming m <sup>3</sup>	Qorao‘zak	Qurilish sanoati xom ashyosi
Jamansoy - Beruniy shahridan 36 km. sh. g‘.	Ohaktosh	5788,2 ming t.	Beruniy	Qurilish sanoati xom ashyosi
Darbozatov - Qoratorv shaharchasidan 37 km. j. sh.	Ohaktosh	477,5 ming t.	Beruniy	Qurilish sanoati xom ashyosi
Sultonbobo - Beruniy shahridan 38 km. sh. g‘.	Ohaktosh	50664,7	Beruniy	Qurilish sanoati xom ashyosi
Orolovul-1	G‘isht - cherepitsa	2173,9 ming m <sup>3</sup>	Mo‘ynoq	G‘isht ishlab chiqarish
Qoraqum - Urganch shahridan 8 km j.	Barxan qum	10778,0 ming m <sup>3</sup>	Urganch	Silikat g‘isht ishlab chiqarish
Bazirgon - Pitnak shahridan 15 sh.sh.	Barxan qum	5 239,0 ming m <sup>3</sup>	Hazorasp	Silikat g‘isht ishlab chiqarish

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya axborot markazi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2022-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoat mahsulotining 51,1 foizi kimyo sanoatida, Xorazm viloyati sanoatining 38,4 foiz mahsuloti mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 1/2 qismidan ortiqrog‘i Nukus shahriga (53,7%) to‘g‘ri keladi, sanoat salohiyati (12,4%) bo‘yicha keyingi o‘rinni Taxiatosh tumani egallaydi. Qolgan tumanlarning sanoat salohiyati nafaqat Nukus shahrinikidan balki, Taxiatosh tumanikidan ikki marta past. Xususan, sanoat ulushi bo‘yicha keyingi o‘rinni egallovchi Qo‘ng‘irot (5,2%) tumanning ulushi Taxiatosh tumanikidan 2 martadan ortiq past. Sanoat salohiyati bo‘yicha keyingi o‘rinlarni To‘rtko‘l (3,9%), Amudaryo (3,2%), Beruniy va Ellikqal‘a tumanlari (har biriniki 2,8%) egallashadi.

Xorazm viloyati sanoatining 51,7 foizi Tuproqqal‘a tumani hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Urganch shahri (17,5%) ham keskin ajralib turadi. Keyingi o‘rinlarni Urganch (5,0%), Xonqa (4,1%), Shovot (3,7%) tumanlari egallashadi. Qolgan hududlarning viloyat sanoatidagi ulushi 3 foizdan past (2022 y.) Bular mintaqqa sanoati juda zaif rivojlangani, tor ixtisoslashuv va hududiy mujassamlashuvga ega ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiy rayonda to‘laqonli shakllangan sanoat tugunlari va rayonlari mavjud emas.

Mintaqalar sanoat ishlab chiqarishini rayonlashtirish murakkab ilmiy masala hisoblanadi. Tadqiqot ishida iqtisodiy rayon tarkibidagi ma‘muriy-hududiy birliklar quyidagi mezonlarga asoslanib sanoat rayonlariga ajratildi, ya‘ni: geografik o‘rinning umumiyliigi, xom ashyo va qazilma boyliklarning mavjudligi, aholi va mehnat resurslari, sanoat tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvi, transport va ijtimoiy infratuzilmasi, ma‘muriy-hududiy birlikning yaxlitligi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Quyi Amudaryo sanoat rayonlari kartasi.**  
**Karta muallif tomonidan ArcGIS dasturida yaratildi.**

Odatda sanoat rayonlari yirik yoqilg‘i-energetika hamda unga tayangan qora metallurgiya va mashinasozlik asosida shakllanadi. Mintaqada ushbu jarayon endi

shakllanish arafasida. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumanida Tebinbuloq kon-metallurgiya kompleksi (KMK) endilikda o‘z faoliyatini boshlaydi. Uning mahsulotlaridan asosan qurilish-montaj va mashinasozlikda foydalaniladi. Korxonada elektr energiya yordamida temir rudasini boyitadi. Bu esa Taxiatosh IES quvvatlarini yanada oshirishni yoki hududning o‘zida yangi IES barpo etishni talab etadi. Respublikaning Qipchoq aholi punkti yaqinida Amudaryoda qurilgan temir yo‘l ko‘prigi va uning ustidan o‘tkazilgan Shovot - Gurlan - Jumurtau - Koybakli temir yo‘li Tebinbuloq KMK mahsuloti asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yirik mashinasozlik quvvatlarini barpo etib rayonda integratsiya jarayonlarini yanada kuchaytirishga imkoniyat yaratadi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni hududlarini yengil, oziq-ovqat, kimyo va avtomobilsozlik tarmoqlari asosida tarmoq-integral rayonlariga ajratish mumkin. Ta’kidlash joizki, ular to‘laqonli shakllangan emas va zaif aloqadagi sanoat markazlari hamda nuqtalari hududiy birlashmasidir. Tadqiqotda Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni Qong‘irot - Mo‘ynoq, Nukus - Xo‘jayli, Qorao‘zak - Taxtako‘pir, Amudaryo - Tortko‘l, Shovot - Gurlan, Urganch – Pitnak, Xiva – Yangiariq singari sanoat rayonlariga ajratildi.

Odatda sanoat rayonlari yirik yoqilg‘i-energetika hamda unga tayangan qora metallurgiya va mashinasozlik asosida shakllanadi. Mintaqada ushbu jarayon endi shakllanish arafasida. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumanida Tebinbuloq kon-metallurgiya kompleksi (KMK) endilikda o‘z faoliyatini boshlaydi. Uning mahsulotlaridan asosan qurilish-montaj va mashinasozlikda foydalaniladi. Korxonada elektr energiya yordamida temir rudasini boyitadi. Bu esa Taxiatosh IES quvvatlarini yanada oshirishni yoki hududning o‘zida yangi IES barpo etishni talab etadi. Respublikaning Qipchoq aholi punkti yaqinida Amudaryoda qurilgan temir yo‘l ko‘prigi va uning ustidan o‘tkazilgan Shovot - Gurlan - Jumurtau - Koybakli temir yo‘li Tebinbuloq KMK mahsuloti asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yirik mashinasozlik quvvatlarini barpo etib rayonda integratsiya jarayonlarini yanada kuchaytirishga imkoniyat yaratadi.


Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni hududlarini yengil, oziq-ovqat, kimyo va avtomobilsozlik tarmoqlari asosida tarmoq-integral rayonlariga ajratish mumkin. Ta’kidlash joizki, ular to‘laqonli shakllangan emas va zaif aloqadagi sanoat markazlari hamda nuqtalari hududiy birlashmasidir. Tadqiqotda Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni Qong‘irot - Mo‘ynoq, Nukus - Xo‘jayli, Qorao‘zak - Taxtako‘pir, Amudaryo - Tortko‘l, Shovot - Gurlan, Urganch – Pitnak, Xiva – Yangiariq singari sanoat rayonlariga ajratildi.

Dissertatsiyaning **“Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoati rivojlanishi va joylanishining istiqbolli yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoati rivojlanishining asosiy muammolari, rivojlanish istiqbollari va prognozi ishlab chiqilgan.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga kiruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, sanoat ishlab chiqarishini rivojlanishiga imkon beruvchi resurs salohiyati jihatidan farqlanadi. Shu sababdan SWOT-tahlil asosida mintaqa hududlari sanoati hozirgi holati va kelgusida rivojlanishi imkoniyatlarini beruvchi omillar tahlil etilgan. Hozirgi kunda sanoat

ishlab chiqarishi rivojlanishiga to'siq bo'luvchi xavf-xatar va muammolar quyidagilardan iborat: texnologik qoloqlik va qaramlik, Orol ekologik fojeasini chuqurlashuvi, suv resurslarining taqchillashishi natijasida oziq-ovqat, yengil sanoat xomashyosini tayyorlashning murakkablashuvi, elektr energiya taqchilligi, energiya talab sohalarning sust rivojlanishi, doimiy salbiy migratsiya saldosining kuchayib borishi, past demografik ko'rsatkichlar natijasida kelgusida mehnat resurslarining taqchilligining yuzaga kelishi, hududda investitsiya jamg'arilishi darajasining pastligi va h.k.

Tadqiqot davomida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Iqtisodiy rayon sanoat tarmog'ining ko'p omilli ekonometrik modelini tuzish uchun 2010-2022-yillar ya'ni 13 yillik davr oralig'ini qamrab olgan quyidagi ko'rsatkichlar natijaviy va ta'sir etuvchi omillar sifatida tanlab olingan: natijaviy omil - sanoat mahsuloti hajmi (mlrd.so'm) - (Y), ta'sir etuvchi omillar - asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd.so'm) - ( $X_1$ ), sanoat tarmog'ida bandlar soni (ming. kishi) - ( $X_2$ ), sanoat tarmog'idagi korxonlar soni (birlikda) - ( $X_3$ ) olingan. Ekonometrik tahlil usullarini amalga oshirish uchun maxsus ekonometrik modellashtirish, statistik va prognozlash dasturi - EViews 9 dasturidan foydalanildi (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Mintaqa sanoat mahsuloti hajmini ARIMA (1, 1, 0) modeli asosida prognoz qilingan qiymatlari hamda ularning 95% ishonchlilik intervali.**

Ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun korrelyatsion tahlil o'tkazish kerak. Buning uchun omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblanadi. Juft korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblashlar natijaviy omil ( $\ln Y$ ) va ta'sir etuvchi omillar ( $\ln X_1, \ln X_2, \ln X_3$ ) o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni juft korrelyatsiya koeffitsientlari qiymati 0,8 dan katta. Juft korrelyatsiya koeffitsientlarining matritsasi tahlili natijalari  $\ln(x_i)$  ( $i = \overline{1,3}$ ) va  $\ln(x_j)$  ( $j = \overline{1,3}$ ) omillar kollinear deb e'tirof etish mumkin emas. Chunki, agar  $r_{\ln(x_i), \ln(x_j)} < 0,8$  bo'lsa hamda  $X'X$  matritsa aniqlovchisi nolga yaqin bo'lmasa, u holda bu multikollinearlikning mavjud emasligidan dalolat beradi.

Demak, omillar orasidagi juft korrelyatsiya koeffitsientlari 0,8 dan kichik bo'lgan son qiymatlarni qabul qilgan. Umumiy holda ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

Bu yerda,  $Y$  – natijaviy omil,  $X_i$  – ta'sir etuvchi omillar ( $i = \overline{1, n}$ ),  $\varepsilon$  – tasodifiy xato. Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1.1) noma'lum  $\alpha_0, \alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n$  parametrlarni aniqlashda “eng kichik kvadratlar usuli” qo'llaniladi.

